

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOLTABAYEV BAXTIYOR SABIRJONOVICH**

**XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON  
O‘LKASIDAGI SAYLOVLAR TARIXI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Boltabayev Baxtiyor Sabirjonovich**

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi saylovlar tarixi..... 5

**Болтабаев Бахтиёр Сабиржонович**

История выборов в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX веков..... 27

**Boltabaev Bakhtiyor Sabirjanovich**

The history of elections in the Turkestan region in the late XIX and early XX centuries..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOLTABAYEV BAXTIYOR SABIRJONOVICH**

**XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON  
O‘LKASIDAGI SAYLOVLAR TARIXI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Tar603 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rasulov Baxtiyor Maxmudjanovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergasheva Yulduz Alimovna**  
tarix fanlari doktori professor

**Xoshimov Soibjon Abdurazzaqovich**  
tarix fanlari doktori (DSc)

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "29" 07 kuni soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog'ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (225 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog'ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" 07 kuni tarqatildi  
(2024-yil "11" 07 dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).

  
**B.J. Eshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**N.N. Rajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

**Yu.A. Ergasheva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, demokratik tamoyillarga mos ravishda o'z davlatchilik asoslarini shakllantirayotgan dunyoning yetakchi va rivojlanayotgan mamlakatlarda saylovlarning o'rni va roli tobora yaqqolroq namoyon bo'lib bormoqda. Demokratiyaga erishishning asosiy vositasi bu aniq davr mobaynida o'tkaziladigan erkin va adolatli saylovlar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda saylov huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, erkin demokratik adolatli saylovlarni tashkil etish, har bir insonni kamsitishlarsiz hamda cheklovlarsiz, erkin saylangan vakillari orqali davlat ishlarini boshqarishda qatnashishi lozim. Umumiy va teng saylov huquqi asosida, saylovchilarning erkin holdagi xohish irodasini ta'minlash, ovoz berish va saylanish masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda<sup>1</sup>.

Jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan dunyo siyosiy maydonidagi davlatlarda saylov jarayonlarini o'tkazish o'z xalqiga yangidan yangi muammolarni paydo qilish uchun emas, balki xalqning manfaatlariga mos ravishda rivojlantiruvchi vositaga aylantirish metodologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalq idorasi hukumat hokimyatining asosi bo'lishi, bu idora soxtalashtirilmagan bo'lishi, umumiy va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan saylovlar mexanizimini takomillashtirish kabi tadqiqotlarni amalga oshirishi lozim. Shu bilan birga saylovlarni tartibga soluvchi qonunchilik masalalarini takomillashtiruvchi mintaqaviy va xalqaro saylov standartlari mavjud bo'lib, ularni yangilash hamda tadrijiy ishlash rejimini umummilliy nuqtaga keltirish dunyo ilm-fanining dolzarb muammosi sifatida baholanmoqda.

Shu jumladan, hozirgi O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan saylov jarayonidagi islohotlar, jahon hamjamiyati va mamlakat fuqarolarining diqqat markazida turibdi. Ma'lumki, saylovlar demokratik islohotlarni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham demokratik tamoyillarga mos holda faoliyat yuritish endigina totalitar tizimdan ozod bo'lgan mamlakat uchun oson kechmadi, chunki bu jarayon har qanday jamiyat uchun ham o'ta murakkab bo'lib uzoq vaqt talab etiladigan hodisadir. Mamlakatimizda saylovlarni tavsiflovchi eng muhim xususiyatlardan biri – bu ochiqlik va oshkoralik. Unga ko'ra, saylov komissiyalari, saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir barcha tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni saylovchilarga ochiq va oshkora ma'lum qiladi. Xalq tomonidan saylangan vakillarga Konstitutsiyaga muvofiq davlat va ijtimoiy hayotning asosiy masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish topshiriladi. Saylovlarda “partiyalar dasturlari orqali o'z saylovchilarini bezovta qilayotgan muammolariga yechimlar topishi, shuning hisobidan elektorati safini kengaytirishi lozim”<sup>2</sup>. Shu jihatdan ham, saylov tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi har qanday omilga qarshi kurashish mexanizmlari, usul va vositalarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

<sup>1</sup> Ахмадшоева М.А., Расулов Ш.Б. Сайлов қонунчилиги: 100 саволга 100 жавоб. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 4 б.

<sup>2</sup> Ш. Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга қўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 566 б.

Mazkur dissertatsiya 2018-yil 27-sentabrdagi “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2020-yil 18-fevraldagi PF–5938-son “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda 2020-yil 18-fevraldagi PQ–4602-son “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda boshqaruv tizimi va saylov tizimining mavzu bo‘yicha nashr etilgan manba hamda adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1. Rossiya imperiyasi va sovet davridagi ilmiy tadqiqotlar.
2. Mustaqillik yillarida nashr etilgan asarlar.
3. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi saylovlar tarixini o‘rganish ko‘plab va turli yozma manbalarni tahlil qilishga asoslanganligi uchun ular birinchi navbatda mazmun bo‘yicha tasniflandi.

Birinchidan, ushbu manbalar Turkistonga oid davlat qonun hujjatlari: farmon, manifest, qoida va boshqalar, shuningdek, yillik yoki maxsus hisobotlar, vazirlar, Duma deputatlari, general-gubernatorlarning esdaliklari, ma‘muriy hamda boshqaruv yozishmalari hisoblanadi<sup>3</sup>. Tadqiq etilayotgan davrga oid muhim materiallarga ega Farg‘ona viloyat davlat arxivi fondlaridan ham unumli foydalanilgan. Ushbu manbalar sirasiga turli xil xotira, avtobiografiyalar, turli muhim masalalarga oid esdaliklar hamda matbuot materiallari kiradi.

XX asrning 20-yillari oxiri – 30-yillar boshlarida Turkistondagi saylovlarga yondashuvlarning o‘ziga xos darajasi bilan oldingi davr asarlaridan farq qiladigan bir qancha nashrlar paydo bo‘ldi. I.G. Broydo, T. Riskulov, I.L. Yamzin, N.N. Jemchujnikov, P.G. Galuzo va G. Safarovlarning asarlarida va ularda

---

<sup>3</sup> Положение об управлении Туркестанским краем. – СПб., 1886; Законодательные акты переходного времени. 1904–1908 гг. – СПб., 1909; Переселение и землеустройство в Азиатской России. Сборник законов и распоряжений / Сост. В.П. Вошинин. – Пг., 1915; Зурабов А. II Государственная дума. Впечатления. – СПб., 1908; Пален К. К. Отчет о ревизии Туркестанского края. Переселенческое дело в Туркестане. – СПб., 1910; Гинс Г.К. Действующее водное право Туркестана и будущий водный закон / Отчет Переселенческому управлению по командировке летом 1909 г. в Семиречье. – СПб., 1910; Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае. Области Сырдарьинская, Самаркандская и Ферганская / Отчет о служебной поездке в Туркестан осенью 1910 г. – СПб., 1911; Кривошеин А.В. Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 г. / Приложение к всеподданнейшему докладу. – СПб., 1912; Ислам в Российской империи (законодательные акты, описания, статистика) / Сост. и автор вводной ст., коммент. и прил. Д.Ю. Арапов. – М., 2001.

ko‘rsatilgan manbalarda Rossiyaning o‘lkadagi siyosati mustamlakachilik tushunchasi sifatida tasniflanishi bilan ajralib turadi<sup>4</sup>.

XX asrning 40–60-yillarida tarixiy qarashlarning birxillashtirish natijasida nashr etilgan asarlarda materiallarni bayon etishda Turkistonda sodir bo‘lgan voqealarning har doim ham real manzaraga to‘g‘ri kelmaydigan tasviri berilgan. Xususan, P.N. Sharova, I. Dodonov, M. Vaxabov, I. Muminov, K.Ye. Bendrikov, L.M. Landa, P.A. Kovalev, Z.D. Kastelskayalarning tadqiqotlari, asosan, o‘lkadagi siyosiy kuchlarning o‘zaro munosabatlari hamda mavjud mafkura ta’sirida ular orasidagi ziddiyatlarga bag‘ishlanadi, shu bilan birga ularda o‘lkadagi sotsial-demokratik guruhlarining yetakchilik roli va ularning siyosiy jarayonlarni borishiga ta’siri bo‘rttirib ko‘rsatib kelingan<sup>5</sup>.

Tadqiqotning ikkinchi guruhiga mustaqillik yillarida nashr etilgan, dissertatsiya mavzusiga bevosita yoki bilvosita aloqador ilmiy tadqiqot, o‘sha davr arboblarning xotiralari kiritildi. Ushbu asarlarning afzalligi avval foydalanilmagan, birinchi navbatda, milliy tillardagi manbalarning ilmiy muomalaga kiritilganligidir. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, bir qator muammolarni xolis yoritish bilan bir qatorda X. Sadikov, G. Axmedjanov, F. Isxakov, R. Abdullayev, N. Abduraximova, S. Agzamxodjayev, K. Rajabov, U. Mansurov, D. Alinazarovalar tadqiqotlarining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, ularda Turkistondagi saylovlar tarixining faqatgina ayrim masalalari aks etgan<sup>6</sup>.

---

<sup>4</sup> Бройдо Г.И. Национальный и колониальный вопрос. – М., 1924; Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. – Ташкент, 1925; Ямзин И.Л., Вошинин В.П. Учение о колонизации и переселении. – М.–Л., 1926; Ўша муаллиф: Восстание туземцев в Средней Азии в 1916 г. – Кызыл-Орда, 1927; Жемчужников Н.Н. Движение на Восток. – М., 1927; Галузо П.Г. Туркестан – колония (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917г.). – М., 1929; Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). – Алматы, 1996.

<sup>5</sup> Шарова П. Н. Переселенческая политика царизма в Средней Азии // Исторические записки. – 1940. – № 8. – С. 3–35; Додонов И. История Февральской буржуазной революции 1917 года в Узбекистане. – Ташкент, 1944; Вахабов М. Ташкент в период трех революций. – Ташкент, 1957; Муминов И. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане конца XIX – начала XX вв. – Ташкент, 1957; Раджабов З.Ш. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX и в начале XX вв. – Душанбе, 1957; Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924 гг.). – М., 1960; Ланда Л.М. Панисламистская и пантюркистская агентура в Туркестане (конец XIX – 1917 год). Дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1953; Ковалев П.А. Народная борьба в 1916 г. и думские депутаты в Туркестане // Труды САГУ. – Ташкент, 1966; Ўша муаллиф: Революционная ситуация 1915–1917 гг. и проявление ее в Туркестане. – Ташкент, 1971; Кагельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865–1917 гг.). – М., 1980; История и историография национально-освободительного движения во второй половине XIX – начале XX вв. в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент, 1989.

<sup>6</sup> Мустафа Чокай ўгли. Истиклол жаллодлари (1917 йил хотиралари). – Тошкент, 1992; Валидий А.З. Хотиралар // Шарқ юлдузи. – 1993. – №4–9; Садыков Х. Убайдулла Ходжаев. Штрихи к политическому портрету // Человек и политика. – 1991. – №11; Садыков Х.Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за национальную независимость в начале XX века. Автореф. дисс... докт. ист. наук. – Ташкент, 1994; Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Ташкент, 1995; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867–1918 гг.). – Ташкент, 1997; Абдуллаев Р.М. Национальные политические организации в Туркестане 1917–1918 гг. Дисс. докт. ист. наук. – Ташкент, 1998; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Ташкент, 2000; Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2003; Агзамходжаев С.С. История Туркестанской автономии (Туркистон мухторияти). – Ташкент, 2006; Ражабов К. Убайдулла Хўжаев, Хидоятбек Юрғули ва бошқалар (Туркистон Мухторияти ҳукумати вазирларининг фаолияти ва кейинги тақдири, 3-қисм). / “Ўзбек миллий давлатчилиги тарихида Туркистон Мухториятининг ўрни ва роли” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2017, 12 октябрь; Мансуров У. 1917–1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018; Мансуров У. Фарғона шаҳарлари тарихи (1917–1924 йиллар). Fazilat orgtex servis. – Наманган, 2019; Алиназарова Д.В. Становление и развитие периодической печати в Ферганской долине (конец XIX – 80-е годы XX века). Т.ф.ф.д (PhD) дисс... автореф. – Ташкент, 2022.

Uchinchi guruhdagi xorijiy mualliflar asarlari, asosan, oʻtgan asrning boshlarida Rossiya siyosatining keskin tanqid qilinishi va uning sovet davri bilan taqqoslanishi orqali tavsiflanadi<sup>7</sup>. O.I. Brusina, T. Kotyukova, A.V. Mamayevlarning asarlarida Turkistondagi siyosiy vaziyat hamda Davlat Dumasi va undagi musulmon deputatlari faoliyati yoritilgan boʻlsa-da, ularda koʻp holatlarda rus mustamlaka siyosati qoralanmay siyosiy vaziyat shuni taqozo etganligi koʻrsatib oʻtiladi<sup>8</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Mazkur dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi №3 sonli “Fargʻona vodiysi tarixining dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasidagi saylovlar tarixini, saylov jarayonidagi muammo va kamchiliklar tarixini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Turkistonda mustamlakachilik maʼmuriy tizimining oʻrnatilishi va uning saylov tizimining shakllanishiga koʻrsatgan taʼsirini oʻrganish;

saylov tizimi, uning huquqiy asoslari va Turkistonda qoʻllanilish xususiyatlarini ochib berish;

oʻlkadagi siyosiy tashkilotlar faoliyati, ularning saylovni oʻtkazish jarayonida tutgan oʻrni va natijalariga taʼsirini tahlil qilish;

markaziy hokimiyat organlaridagi turkistonlik deputatlarning faoliyatini ochib berish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy siyosiy jarayonlar hamda saylov tizimini arxiv materiallari va tarixiy manbalar orqali yoritish belgilab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda saylov jarayonlarini boshlanishi, saylov boʻyicha joriy etilgan qonunlar, qarorlar, farmonlar va ularning oʻlkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tasiri tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga tarixiylik va haqqoniylik tamoyillari asosida yondashilib, belgilangan vazifalarni toʻgʻri yoritishda tarixiylik tamoyili va tizimli tahlil, qiyosiy-xronologik, tarixiy davrlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda mustamlaka koʻrinishidagi saylov qonunchiligining vujudga kelishi va saylov komissiyalarining qarorlari, oʻziga xos xususiyatlari, saylov komissiyalari hamda saylovlarda ishtirok etuvchi

---

<sup>7</sup> Edward A. Allworth. The modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. A cultural history. – Stanford, 1990; Central Asia. 130 years of Russian Dominance. A historical overview // Edited by Edward A. Allworth. – London, 1994; Martha Brill Olcott. Central Asia’s new states. – Washington, 1997; Gregory Gleason. The Central Asian states: discovering independence. – Westview Press, 1997; Sabol S. Russian Colonization and the Genesis of Kazak National Consciousness. – University of North Carolina, 2003; Пайпс Р. Русская революция. Т. 1. – М., 1994; Хоскинг Д. История Советского Союза. 1917–1991 гг. – М., 1995; Бабаджанов Б.М. Туркестан в имперской политике России: Монография в документах. – М.: Кучково поле, 2016; Аян Аден. Туркестан и Дума II созыва (дата обращения 03.05.2023). <https://e-history.kz/ru/news/show/339140>.

<sup>8</sup> Брусина О. И. Славяне в Средней Азии (Этнические и социальные процессы. Конец XIX – конец XX века. – М., 2001.; 2005; Котюкова Т. Прошение коренного населения Туркестана о прекращении изъятия земли у кочевников. // Восточный архив. №16, 2007; Котюкова Т. Керенские в Туркестане: История жизни одной семьи.: [tps://www.fergananews.com/articles/7149](https://www.fergananews.com/articles/7149); Мамаев А.В. Проблемы экономического развития Туркестана в работе IV Государственной думы. // Клио. – №11(143). 2018. – С. 74 (73-82).

siyosiy guruhlar, partiyalar, mahalliy aholining noroziliklari faoliyati, mitinglar, Turkiston o'lkasida saylov tashviqotini o'tkazish natijasida o'lkada saylov bo'yicha yangi qonun va qarorlarning saylovlarni o'tkazish bo'yicha nizom loyihalarini paydo bo'lishi jarayonlari ochib berilgan;

O'lkaning "siyosiy uyg'onish"i, I va II Davlat Dumasiga saylovlar, 1905–1907-yillarda Turkistonning Davlat Dumasidagi vakilligida deputatlarni sonini kam ajratilishi faoliyati tarixi, deputatlarni qonun muhokamalarida ishtirokini taqiqlanishi, siyosiy huquqlari, partiyalarning saylovoldi kurashi natijasida Turkistonlik deputatlarning siyosiy jihatdan kamsitilishi, deputatlarning Turkistonliklar uchun berilgan g'oya va takliflari дума yig'ilishlarida inobatga olinmaganligi dalillangan;

Turkistonda Davlat Dumasiga o'tkazilgan mahalliy o'z o'zini boshqarish organlariga o'tkazilgan saylov hisobotlari, mahalliy aholini saylovlarda siyosiy mustaqillikka intilish uchun harakatlari, saylangan deputatlarning boshqa millat vakillaridan iborat ekanligi, milliy tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, deputatlar tarkibida Turkiston xalq vakillarining, ko'chirib keltirilgan rusiyzabon aholi vakillariga nisbatan kam ekanligi dalillar asosida isbotlangan;

Davlat дума yig'ilishlarida Turkiston masalasini muhokama qilmaydigan, faqatgina дума yig'ilishlarida ishtirokchi sifatida Turkistonliklarni kamsitilishi masalasi, 1907–1917-yillarda Turkiston o'lkasi va uning barcha aholisi saylov huquqidan mahrum qilinishi natijasida Turkiston masalasida mahalliy millat vakillaridan siyosiy jihatdan boshqaruvchi kerak emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi saylovlar faoliyati, o'tkazilgan saylovlar tarkibi va uning natijasida yuzaga kelgan mansablar, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jarayonlar va muammolar aniqlashtirilgan;

Rossiya imperiyasining Turkistondagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati, mustamlakachilik g'oyalari bilan to'ldirilgan yangi saylov tizimini Turkistonda joriy etilishi, mahalliy aholining saylov tizimiga bo'lgan munosabati, Turkistondagi I-II davlat dumalariga bo'lgan saylovlarda Turkistonlik deputatlarning haq-huquqlarini dumada cheklanishi va ular tomonidan bildirilgan fikrlar inobatga olinmaganligi, muammolari arxiv hujjatlari asosida ochib berilgan;

Rus, eski o'zbek tilida mavjud arxiv hujjatlarini va ingliz tilidagi adabiyotlarni ilmiy muomilaga kiritish va kelajak yosh avlodlarga o'zbek tilida yetkazish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi Farg'ona viloyati bo'limi arxivi, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari Davlat arxivlari ma'lumotlari, shuningdek, Respublika kutubxonalarida saqlanayotgan ko'plab hujjatlarga asoslangan bo'lib, uning amaliyotga joriy etilganligi natijalari turli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Rossiya imperiyasi davridagi saylov tizimlari chuqur tadqiq etilib, saylov tizimi kategoriyasi ilmiy nazariy jihatdan ochib berilgan, saylov jarayonida ishtirok etayotgan obyekt va subyektlarning o'tish davrida mamlakat siyosiy hayotida ro'y berayotgan siyosiy o'zgarishlarga tasiri, mustamlaka saylov tizimining mamlakat hayotiga ta'sir

etishi, uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etish bilan izohlanadi.

Turkistonning mustamlakachilik davri tarixini o'rganish, Turkistondagi saylovlar tarixini yoritish, saylovlarga oid tarixiy bilimlarni boyitish, shuningdek, oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus ta'lim tizimida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va qo'shimcha adabiyotlar tayyorlash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda ishlatilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi saylovlar tarixiga oid ishlab chiqilgan amaliy takliflar asosida:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda mustamlaka ko'rinishidagi saylov qonunchiligining vujudga kelishi va saylov komissiyalarining qarorlari, o'ziga xos xususiyatlari, saylovlarda ishtirok etuvchi siyosiy guruhlar, partiyalar, mahalliy aholining noroziliklari faoliyati, mitinglar, kabi taklif va tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston teleradiokanalida" 2023-yil 26-yanvardagi 04-36/127-son ma'lumotnomasi "Millat va ma'naviyat" "O'zbekiston yoshlari" ko'rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda va xalqimizga saylov jarayonlari qanday amalga oshirilganligini ilmiy jihatdan asoslab berishda foydalanilgan. Natijada xalqimiz tafakkurida saylov tushunchasini ahamiyatini oshishiga, saylov qonunchiligini yanada xalqchil va demokratik normalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan.

Turkiston o'lkasida saylov tashviqotini va uni o'tkazish jarayonlari, Turkistonda davlat Dumasiga o'tkazilgan saylov natijalari, Turkiston deputatlarining keyingi taqdiri, O'lkaning siyosiy uyg'onishi, I va II Davlat Dumasiga saylovlar, partiyalarning saylovoldi kurashi natijasida deputatlarning tomonidan berilgan g'oya va takliflari inobatga olinmasligi to'g'risidagi taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining saylov va saylovoldi jarayonlari tarixiga oid ilmiy ma'lumotlardan partiyaning dasturiy maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarishda, saylov kompaniyalarini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashining 2023-yil 2-martdagi 1-66-son ma'lumotnomasi). Natijada Turkistondagi saylovlar tarixi tizimi dolzarb masala ekanligi haqidagi tushunchalarni respublikamiz aholisi orasida targ'ib qilishga va bugungi kunda saylov qonunchiligi va amaliyotini, saylov huquqining yangi kafolatlarini takomillashishiga xizmat qilgan.

Duma va boshqaruv organlarida Turkiston masalasi, Turkistonda Davlat Dumasiga o'tkazilgan mahalliy o'z o'zini boshqarish organlariga o'tkazilgan saylov hisobotlari, mahalliy aholini saylovlarda siyosiy mustaqillikka intilish uchun harakatlari, saylangan deputatlarning boshqa millat vakillaridan iborat ekanligi, milliy tarkibi, kabi taklif va tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston teleradiokanalida" 2023-yil 26-yanvardagi 04-36/127-son ma'lumotnomasi "Ta'lim va taraqqiyot" ko'rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda saylov jarayonlarida saylov kompaniyalarining va siyosiy partiyalarning o'z oldidagi mas'uliyatini oshirishda foydalanilgan. Natijada Yangi O'zbekistonda ham buguni kunda saylov jarayonlari tarixi dolzarb masala ekanligini xalqimizga yetkazishga xizmat qilgan.

Turkiston masalasini Duma va boshqaruv organlarida ko'rib chiqilishi, Davlat duma yig'ilishlarida Turkiston masalasini muhokama qilmaydigan, faqatgina duma yig'ilishlarida ishtirokchi sifatida qatnashishi, Turkistonliklarni kamsitilishi

masalasi, Turkistonlik deputatlarining “taqdiri”, 1907–1917-yillarda Turkiston o‘lkasi va uning barcha aholisi saylov huquqidan mahrum qilinganligi to‘g‘risidagi ilmiy dalillardan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda amalga oshirilgan targ‘ibot tashviqot ishlari va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining mafkuraviy targ‘ibotlar, o‘quv-seminarlar va saylovoldi kompaniyalarini tashkil etishdagi samarali usullaridan foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashining 2023-yil 2-martdagi 1-66-son ma‘lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida bugungi kunda saylov tizimini to‘g‘risidagi birlamchi ma‘lumotlarni keng jamoatchilikga yetkazib berish, milliy saylov qonunchiligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ish chop etilgan. Shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 3 ta (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola, 2 ta respublika va xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarda materiallar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hamji.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt hamda predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi bayon qilinib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan. Olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e‘lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Turkistonda davlat boshqaruvining yangi tizimini yaratish va saylov qonunchiligini shakllantirish”** deb nomlangan birinchi bobi Rossiya imperiyasi o‘lkani bosib olinishi natijasida mustamlaka boshqaruv hamda saylov tizimini shakllantirilishiga bag‘ishlangan.

Ma‘lumki, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib O‘rta Osiyodagi siyosiy vaziyat keskin o‘zgaradi, bunga esa Rossiya imperiyasining ushbu o‘lkadagi faol harbiy harakatlari sabab bo‘ladi. Rossiya imperiyasining kengayishini uning tarafdoralari ikkita sabab bilan izohlashar edi: 1) harbiy-siyosiy qarama-qarshilik (mashhur “katta o‘yin”, ya’ni jahon xaritasidagi Rossiya va Britaniya imperiyalarining raqobati) va 2) iqtisodiy (savdo tranzit yo‘llari uchun kurash)<sup>9</sup>.

<sup>9</sup> История России. XIX – начала XX вв. – М.: Зерцало, 2004. – С. 311.

Qrim urushi (1853-1856)dan keyin Rossiya imperiyasi faqatgina janubi-sharqiy yoʻnalishda kengayishi mumkin edi. Shu munosabat bilan “Turkiston vedomosti” gazetasida yozilishicha, Rossiya oʻzining tarixiy rivojlanishi uchun barcha yoʻnalishlarda oʻsishi va kengayishi kerak edi, shuning uchun u eʼtiborini eng kam qarshilik koʻrsatadigan yoʻnalishlarga qaratadi. Unga koʻra, tarix Rossiyani sharqqa yubordi va gʻarbda mudofaa ishlari amalga oshirildi, shuning oqibatida Sharqda Rossiya bosqichma-bosqich oldinga siljigan edi<sup>10</sup>. Qizigʻi shundaki, davriy nashrlarda rus qoʻshinlarining oʻlkaga kirishini “tabiiy chegaralar uchun kurash” bilan izohlagan edi<sup>11</sup>.

Oʻrta Osiyo 1864-yildan 1895-yilgacha boʻlgan davrda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan boʻlib<sup>12</sup>, XVIII asrda mazkur oʻlkada uchta davlat (Buxoro amirligi, Qoʻqon va Xiva xonliklari) hamda qozoq juzlari mavjud edi. Yuqorida nomlari qayd etilgan davlat subyektlarining siyosiy parchalanishi va iqtisodiy tanazzuli ularning Rossiya imperiyasining chekka hududiga aylanishining asosiy omili boʻlib xizmat qildi. Yevropa davlatlari (Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiya)ning Sharqqa kirib borishiga Gʻarbning kapitalistik asosda jadal iqtisodiy rivojlanishi sabab boʻldi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa oʻz mahsulotlari va arzon xomashyo uchun bozorlarga muhtoj edilar<sup>13</sup>. Ammo Rossiya imperiyasida iqtisodiy emas, balki harbiy-siyosiy omillar hukmronlik qilar edi. Chunki imperiya endigina kapitalistik rivojlanish yoʻliga kirish arafasida edi va chor Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati kapitalistik raqobatning natijasi emas, balki bu kapitalistik raqobatdan qochish vositasi ekanligini koʻpchilik anglab yetgan edi<sup>14</sup>.

Maʼmuriy jihatdan Turkiston viloyati Orenburg general-gubernatorligining bir qismiga aylanadi (1867 yilgacha). M.G. Chernyayev birinchi harbiy gubernator etib tayinlandi. Vaqtinchalik vaziyatning asosiy maqsadi “... boshqaruvning umumiy tamoyillarini belgilash orqali yangi rus yerlarida tinchlik va xavfsizlikni oʻrnatish edi. Barcha hokimiyat, harbiy hokimiyat qoʻlida toʻplanib maʼmuriy organlarga esa faqatgina ichki hayoti oʻzgarishsiz qolgan aholi nazorati topshirilgan edi<sup>15</sup>. Turkiston viloyati uchta qismga boʻlinib, oʻng, markaz va chap qanotlardan iborat edi. Irjar va Xoʻjand qoʻlga kiritilgandan keyin Sirdaryo viloyatiga oʻzgartirilgan oʻng qanot Aralsk, 1-Fort (Kazalinsk) va Perovsk shaharlarini qamrab olgan edi; markaz esa Turkiston va Chimkent tumanlaridan iborat edi; chap qanotga Pishpak, Merke, Verniy, Avliyoota shaharlaridan iborat edi<sup>16</sup>. 1865-yilda “Turkiston viloyatini boshqarish toʻgʻrisidagi vaqtinchalik Nizom” kuchga kiradi va bu harbiy va

<sup>10</sup> Туркестанские ведомости. 1900 г. 5 марта. – №19.

<sup>11</sup> Туркестанские ведомости. 1881 г. 6 октября. – №39.

<sup>12</sup> Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII – нач. XX вв. – Ташкент: Фан, 2009. – С. 12–13.

<sup>13</sup> Абдурахимова Н.А., Рустамова Г.К. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – I четверти XX вв. – Ташкент: Университет, 1999. – 163 с.; Павлов В.И. Формирование индийской буржуазии. – М.: Изд-во вост. лит., 1958. – 319 с.; Левковский А.И. Особенности развития капитализма в Индии. – М.: Изд-во вост. лит., 1963. – 589 с.

<sup>14</sup> Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). – М.: ГИЗ, 1921. – С. 28.

<sup>15</sup> Отчет по ревизии Туркестанского управления, произведенной по Высочайшему повелению сенатором, гофмейстером графом К.К. Паленом. Краевое управление. – СПб.: Сенатская тип., 1910. – С. 6.

<sup>16</sup> Турсунов Б.Р. Начало покорения Кокандского ханства Российской империей. // Номаи Донишгоҳ. – №4(61) 2019. – С. 22 (17-23).

fuqarolik hokimiyatining bir qo'lda to'planish tizmini ta'minlaydi<sup>17</sup>. Ushbu Nizomda Turkistonga nisbatan ilk bora "harbiy-xalq boshqaruvi" atamasi rasman ishlatilgan edi. Bunday tizimni joriy etishning birinchi tajribasi Kavkaz amalga oshirilgan edi<sup>18</sup>.

"Vaqtinchalik Nizom"ning kamchiliklaridan biri bu 1856-yildagi ko'rsatmalarda batafsil muhokama qilingan harakatsiz (birinchi navbatda, shahar) aholi uchun boshlang'ich ma'muriyatni batafsil tavsiflash va ko'chmanchilar orasida mahalliy boshqaruvni tashkil etish to'g'risida sir saqlash edi<sup>19</sup>.

Shunga qaramay, 1865-yilgi "Vaqtinchalik Nizom" hukumatning O'rta Osiyoda yangi olingan hududlarda boshqaruv tizimini tezkor tashkil etish zarurligi masalasi haqida to'liq reja qilinishi kerakligini ko'rsatdi. Shuning uchun uni batafsilroq qayta ishlashni Turkiston viloyati harbiy gubernatoriga topshirishga qaror qilindi.

Shunga asoslanib, Toshkent Orenburg harbiy okrugi o'zining Kengashiga o'xshab, markaz (Orenburg)ga qaram bo'lgan, Turkiston harbiy gubernatori raisligida harbiy okrug ma'muriyati bo'linmalarining mahalliy boshliqlaridan iborat viloyat kengashini tuzishni taklif qiladi<sup>20</sup>.

1867-yilning boshiga kelib, Fon Kaufman tarafidan ishlab chiqilgan vaqtinchalik Nizom loyihasi tayyorlanadi. Unda Turkiston viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishining umumiy imperatorlik an'analari va chegara xususiyatlarini birlashtirgan yangi shakli hamda harbiy gubernator huzurida O'lka kengash tuzish taklif qilinadi. Uning tarkibiga gubernator o'rinbosari, uchta maslahatchi, shifokor va mahalliy aholining uch nafar vakili kirishi kerak edi<sup>21</sup>.

Mahalliy aholining ikki vakilini kiritish taklif qilingan okrug ma'muriyati rahbari mahalliy aholining boshlig'i bo'lishi, volostlarni boshqarishni ko'chmanchilar o'rtasida volostlar qurultoyi, o'troq aholi o'rtasida volost yig'ini amalga oshirishi va mahalliy aholi (ko'chmanchilar va harakatsiz) uchun asosiy sud organi yagona mahkamaga aylanishi kerak edi.

Nizom loyihasini ishlab chiquvchilar talabiga ko'ra, yangi tayinlanadigan mansabdorning mahalliy aholiga nisbatan asosiy pozitsiyasi quyidagi qoidadan iborat bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan edi, ya'ni: "mahalliy aholini haqorat va tovlamachilikdan himoya qilishi va ularga barcha hollarda tegishli yordam va homiylik ko'rsatishilar kabi edi ...". Jami 99 mansabdor shaxs (shu jumladan, ikkita rus mutaxassisi), shuningdek, mahalliy aholi orasidan xalq sudlarining 25 a'zosi va har bir okrugda bitta shifokor va feldsher (jami 14 kishi) mahalliy aholini boshqarishi kerak edi. Natijasida, viloyat mahalliy aholisini boshqarishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar sonini xalq sudlari a'zolarini hisobga olmaganda, qariyb 25 barobarga oshirish rejalashtirilgan edi, agar Sirdaryo viloyat

<sup>17</sup> Временное Положение об управлении Туркестанской областью / Полное собрание законов Российской империи. Собрание второе. Т. XL. – 1865. – Отд. 1. – № 42372. – С. 876–881.

<sup>18</sup> Васильев Д.В. Туркестанская область: становление административного законодательства в русском Туркестане. 1854–1866 // Интеллект. Инновация. Инвестиция. – 2013. – №4. – С. 177.

<sup>19</sup> Парманов Ш.И. Становление правового статуса Туркестана в период присоединения к российской империи. // Образование и право. – №11, 2019. – С. 268 (266-270).

<sup>20</sup> Брежнева С.Н. Генерал М.Г. Черняев: личность на фоне военной кампании по завоеванию Туркестана Россией. // Вестник РУДН, серия История России, 2014. – №1. – С. 114 (106-117).

<sup>21</sup> Емельянова Н.М. Значение института казахских биев в административной структуре западно-сибирского генерал-губернаторства XIX века. // Номаи донишгоҳ. №2(51) 2017. – С. 12 (11-16).

ma'muriyatining 1854-yildagi dastlabki xodimlarini hisobga olinadigan bo'linsa, 1861-yilga nisbatan 12 baravar ko'proq, 1865-yilgi Chernyayev-Seversov loyihasiga nisbatan 4,5, 1865-yildagi "Vaqtinchalik Nizom"da belgilanganidan esa 1,5 baravar ko'p edi<sup>22</sup>.

Mahalliy aholi orasidan mansabdor shaxslarni saylash ko'chmanchilar o'rtasidagi volost qurultoylari va o'troq xalq yig'inlarida bo'lib o'tar edi. Mahalliy aholi maoshli lavozimlarga uch, maoshsizlarga esa bir yil muddatga saylanar edi.

Mahalliy aholi vakillari volost va quyi hokimiyat organlarining quyidagi lavozimlariga saylanar edi: xalq sudi a'zolari hamda a'ziligiga nomzodlar, okrug politsiya bo'limi a'zolari va a'ziligiga nomzodlar, shahar boshliqlari, xalq xo'jaligining tijorat bo'yicha maslahatchilari, sud, shahar oqsoqollari yordamchilari bilan katta va kichik biylar, shuningdek, ushbu lavozimlarga nomzodlar bilan oqsoqollar, volost sudining a'zolari ham kirar edi. Bundan tashqari, shahar va volostlarda soliqchilar (sarkorlar), ariq oqsoqollari (miroblar) va dala boshliqlari (devonbegilar) saylanishi mumkin edi<sup>23</sup>.

Turkistonning Toshkentdan boshqa shaharlarida, o'z o'zini boshqarish organlari tashkil etilmagan edi. "1867-yil Nizomi"ga ko'ra, jamoat-xo'jalik ishlari shaharlardan saylanuvchi mahalliy ma'muriyat tomonidan amalga oshirilardi. Shahar qismlar (ya'ni rayonlar)ga bo'linib, ularni oqsoqollar boshqarib, ular mahallalarda tayinlangan saylovchilar qurultoyi tomonidan saylanardi<sup>24</sup>.

Shunday qilib, Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi "Vaqtinchalik Nizom"ni ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimini yaratish nuqtai nazaridan o'lkada imperator ma'muriy institutlari elementlarini joriy etishga urinish sifatida qabul qilish kerak edi. Loyihachilarning o'lkani umumiy imperatorlik ma'muriy darajasiga jalb qilish istagi, shuningdek, mahalliy aholining volost, okrug va hatto viloyat ma'muriyatida juda keng (zo'rg'a bosib olingan o'lka uchun) ishtirokini e'lon qilish bilan bog'liq edi<sup>25</sup>. Natijada mahalliy amaldorlarning yangi nomenklaturasi joriy qilinib, birlamchi (ovul) va volost darajalarida o'zini o'zi boshqarish tizimi shakllantiriladi, lekin o'lkaning ko'chmanchi va o'troq aholisining ma'muriy organlarini alohida ajratilmadi<sup>26</sup>.

Turkiston viloyati to'g'risidagi Nizom loyihasida boshlang'ich (mahalliy) ma'muriyat mansabdor shaxslari saylovini tashkil etish masalasi alohida ko'rib chiqilgan edi. Ushbu jarayon o'troq va ko'chmanchilar aholi uchun bo'lishi kerak edi. Ko'chmanchi va o'troq xalqlar uchun saylov tartib-qoidalarini solishtirish shuni ko'rsatadiki, xo'jalik bo'limi a'zolarini saylashda ko'chmanchilar vakilligi o'troq aholiga qaraganda kamroq bo'lgan. Buni qonun loyihasining sarlavhasidagi to'g'ridan to'g'ri va bilvosita ma'nolarda kuzatish mumkin. Qonun loyihasining ayrim bo'limlari o'sha paytda Rossiyada sodir bo'layotgan "Buyuk islohotlar"ning tegishli qoidalariga juda o'xshar edi.

<sup>22</sup> Васильев Д.В. Туркестанская область: становление административного законодательства в русском Туркестане. 1854–1866 // Интеллект. Инновация. Инвестиция. – 2013. – №4. – С. 178.

<sup>23</sup> Шушкова М.Е. Организация управления Туркестаном в начале XX века: дисс... канд. исторических наук. Российский государственный гуманитарный университет. – М., 2016. – С. 121.

<sup>24</sup> Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркестонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2003. – Б. 55.

<sup>25</sup> Васильев Д.В. Туркестанская область: становление административного законодательства в русском Туркестане. 1854–1866 // Интеллект. Инновация. Инвестиция. – 2013. – №4. – С. 178.

<sup>26</sup> Проект Положения о Туркестанской области по военно-народному управлению.

1867-yil 11-iyulda Aleksandr II “Turkiston general-gubernatorligini boshqarish to‘g‘risidagi vaqtinchalik Nizom loyihasi”ni tasdiqlaydi. Viloyatning birinchi general-gubernatori general-ad‘yutant K.P. Kaufman bo‘ladi. Unga cheksiz vakolatlar beriladi. Rasmiy ravishda Turkistonda hukumat “harbiy-xalq” boshqaruvi deb nomlangan tizimni kiritadi. Boshqaruvning asosi sifatida quyidagi qoidalar o‘rnatiladi: 1) harbiy va ma‘muriy hokimiyatning bo‘linmasligi va hokimiyatning shaxs qo‘lida to‘planishi; 2) mahalliy aholiga siyosiy xarakterga ega bo‘lmagan quyi ichki boshqaruvni ta‘minlash va hokazo<sup>27</sup>.

1869-yilda o‘lkaning butun iqtisodiy hayotini nazorat qiluvchi Turkiston davlat palatasi tashkil etiladi<sup>28</sup>.

Shuningdek, L.M. Lisenko ta‘kidlaganidek: “harbiy-xalq boshqaruv tizimi quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turardi: 1) harbiy va fuqarolik hokimiyatining uzluksizligi; 2) mahalliy aholi orasidan saylangan shaxslarga siyosiy xarakterga ega bo‘lmagan barcha masalalarda mahalliy boshqaruvni ta‘minlash; 3) mahalliy aholi orasidan siyosiy boshqaruvni saqlab qolish, hozircha umumiy imperator qonunlari bilan tartibga solinmagan munosabatlar sohasida mahalliy Qonunchilik doirasidagi huquq hisoblanar edi”<sup>29</sup>.

Turkiston general-gubernatorligi dastlab Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridan iborat edi: Keyinchalik Zarafshon (1865-yilda tashkil topgan, keyinchalik Samarqand deb o‘zgartirilgan), Farg‘ona (1876), Amudaryo bo‘limi (1873-yilda tashkil topgan va Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilgan) va (1881) Kaspiyorti viloyatlari tashkil topgan edi. Viloyatlar uyezdlar, ular esa o‘z navbatida volostlarga bo‘lingan. Qo‘lida ma‘muriy hokimiyat, politsiya, sud va harbiy tizim to‘plangan viloyatlardagi mahalliy ma‘muriyatni boshqargan harbiy gubernatorlar lavozimi joriy qilinadi<sup>30</sup>.

Har bir okrugda aholi volostlarga, volostlar qishloq va ovullarga bo‘lingan. Volostlarning boshida volost boshliqlari, qishloq va ovullarda esa uch yil muddatga mahalliy aholi tomonidan “saylangan” qishloq va va ovul oqsoqollari mavjud edi.

“Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ning 83-moddasida kamida yigirma besh yoshga to‘lgan shaxslar volost va qishloq oqsoqoli lavozimiga saylanish huquqiga ega bo‘lgan<sup>31</sup>. Saylovga quyidagilarga yo‘l qo‘yilmas edi: xalq sudining hukmiga binoan jinoyat yoki huquqbuzarliklar uchun jazolangan, tergov osti yoki jinoyat yoki noto‘g‘ri xatti-harakatlar ayblovi bilan sudlanganlar.

Volost oqsoqoligiga saylovlar ikki bosqichdan iborat bo‘lib, dastlab qishloq yig‘ilishi o‘tkazilgan, unda har 50 ta xonadon egalari orasidan bitta saylovchi saylanar edi. Keyingi bosqichda qishloq jamoalaridan saylanganlar rus ma‘muriyati vakillari ishtirokida bo‘lib o‘tgan volost kengashi yig‘inlari edi. Qoida tariqasida, bu yerda uyezd boshlig‘i yoki uning yordamchisi saylov jarayoniga aralashmagan holatda jarayonni nazorat qilib turishgan. Kengash boshlanishidan oldin barcha

<sup>27</sup> Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированный для ревизии края по Высочайшему повелению. – СПб., 1883. – С. 3.

<sup>28</sup> Пален К.К. Отчет о ревизии Туркестанского края. Переселенческое дело в Туркестане. Краевое управление. – СПб., 1910. – С. 132.

<sup>29</sup> Лысенко Л.М. Губернаторы и генерал-губернаторы Российской империи (XVIII – начало XX в.). – М.: изд-во МГПУ, 2001. – С. 158.

<sup>30</sup> Пален К.К. Отчет о ревизии Туркестанского края. Переселенческое дело в Туркестане. Краевое управление. – СПб., 1910. – С. 10.

<sup>31</sup> ЎзМА. Ф.И-17. 1-ийғма жилд, 3982-иш, 22-варақ.

ellikboshilar borligi tekshirilib, saylovchilar umumiy sonining 2/3 qismidan kamrog‘i ishtirok etadigan bo‘lsa, volost kengashi yig‘ini bekor qilingan<sup>32</sup>.

Volost boshlig‘i, iqtisodiy boshqaruvdan tashqari, politsiya funksiyasini ham bajarib u volostdagi “xotirjamlik”ni kuzatgan, xalq sudiga taalluqli jinoyat bo‘yicha surishtiruv o‘tkazgan, hukumatning barcha qonun va buyruqlarini aholiga yetkazgan. Agar volost rahbari shaxsi biron bir sababga ko‘ra, Rossiya ma‘muriyatiga mos kelmasa, u holda viloyat harbiy gubernatori yangi saylovlarni tayinlashi yoki uni o‘z xohishiga ko‘ra vaqtincha boshqa odam bilan almashtirishi mumkin edi<sup>33</sup>.

O‘z navbatida, imperiya ma‘muriyati ushbu huquqdan juda keng foydalangan. Masalan, F.K. Girs volost va qishloq ma‘muriyati faoliyatini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi hisobotida quyidagi ma‘lumotlarni keltiradi: “Sirdaryo viloyatining 109 volost boshqaruvchisidan 38 kishi uch yil ichida ishdan bo‘shatildi, bu yiliga 35 foiz yoki 13 ga yaqin holatni tashkil etadi” – deb yozadi u.

Ellikboshilarni saylash sudga tortilmagan hurmatga ega aholi orasidan o‘tkazilar edi<sup>34</sup>. Saylovdan avval nomzodlar ro‘yxati tuzilib saylovlar ochiq va iloji bo‘lsa, barcha xohlovchilar ishtirokida tantanali ravishda o‘tkazilishi kerak edi. Uy-joy mulkdorlarining 50 foiz dan ortig‘i ishtirok etishi shart edi. Shuningdek, barchaga saylov o‘tkazish tartibini: yopiq ovoz berish byulleteni, tegishli rangdagi qutilar va ularning joylashishini aniq tushuntirilishi zarur edi. Nomzod berishdan avval, ellikboshilardan har bir lavozimga nomzod va ularni ro‘yxatni e‘lon qilish so‘ralgan. Nomzodlar ro‘yxatdagi yozuvga ko‘ra navbatma-navbat davom etar edi. Har bir nomzod olgan saylov ballari soni oshkora e‘lon qilinib, so‘ngra kimlar yuqori organlar tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilishi e‘lon qilinadi. Saylov natijalari to‘g‘risida barcha ishtirok etganlarning imzolari va tamg‘alari bilan jamoat xulosasi tuzilar va uyezd boshlig‘i tomonidan tasdiqlanar edi<sup>35</sup>.

1877-yil 16-avgustdan Toshkent shahar Dumasiga a‘zolari saylash boshlanadi va shu yilning 30-avgustidayoq Toshkent shahar Dumasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tadi. Sentyabr oyida shahar mahkamasining olti amaldor lavozimiga saylov bo‘lib o‘tadi, shulardan ikkitasi mahalliy aholi vakillaridan, qolganlari shaxarning rus aholisi vakillaridan iborat edi. Mahalliy sharoit xususiyatlarini hisobga olgan holda general-gubernator tavsiyasi bo‘yicha shahar ijtimoiy boshqarmasi saqlab qolinadi. Buning natijasida Duma faoliyati ustidan tartib nazoratini Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Shahar Dumasi farmoyish chiqaruvchi, shahar mahkamasi esa uni bajaruvchi organ hisoblanar edi. Lekin Dumaning chiqargan qarorlari dastlab general-gubernator tomonidan tasdiqlanishi kerak bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida, Dumani mustaqil ish yurita olmaganidan dalolat berar edi<sup>36</sup>.

<sup>32</sup> [articlekz.com/article/18202](http://articlekz.com/article/18202)

<sup>33</sup> Шушкова М.Е. Организация управления Туркестаном в начале XX века: дисс... канд. исторических наук. Российский государственный гуманитарный университет. – М., 2016. – С. 124, 110.

<sup>34</sup> Ахметжанова А.Т. Степное положение 1891 года в Казахстане: исторический аспект. Дисс. канд. ист. наук. – Алматы, 2010. – С. 54.

<sup>35</sup> Жакыпбек С.К. Содержание реформы 1867–1868 гг. // Вестник КазГУ. Серия историческая. – 2000. – № 16. – С. 75–80.

<sup>36</sup> Шушкова М.Е. Организация управления Туркестаном в начале XX века: дисс... канд. исторических наук. Российский государственный гуманитарный университет. – М., 2016. – С. 109; Исмоилова Ж.Х. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи //shosh.uz/hih-asrning-ikkinchi-yarmi-hh-asr-boshlarida-toshkent-boshqaruv-tizimi-2/

Viloyatning ma'muriy markazi Toshkent shahri bo'lib, u o'zini o'zi boshqarishni 1870-yildagi "Shahar Nizomi to'g'risida"gi qonunga muvofiq amalga oshirib kelgan<sup>37</sup>. Shahar hayotini saylangan Duma boshqarib 25 yoshga to'lgan, rus fuqaroligiga ega, soliqlarni muntazam to'lab kelgan, ko'chmas mulkka ega bo'lgan va sud va tergov ostida bo'lmagan Rossiya fuqarolari ovoz berish huquqiga ega edi. Ovoz beruvchilarning 1/3 qismi shaharning "Osiyo"(mahalliy), 2/3 qismi esa shaharning "yangi (rus)" qismi aholisi tomonidan tanlangan. Yevropaliklarning 3921 nafari Dumada 48 o'ringa egalik qilgan bo'lsa, 80000 kishidan iborat mahalliy aholi uchun esa atigi 24 kishi saylanar edi<sup>38</sup>.

Turkiston viloyatining qolgan shaharlari saylanadigan oqsoqollar rahbarligidagi tumanlarga bo'lingan. Shahar oqsoqollari, asosan, soliq va boj tizimini tartibga solish bilan shug'ullangan. Katta oqsoqol barcha quyi politsiya tarkibi, mirob va sudyalarga bo'ysungan. Ularning barchasi shahar aholisidan yig'ilgan mablag'lar hisobidan maosh olgan<sup>39</sup>.

1905-yil iyul oyining ikkinchi yarmida Nikolay II tashabbusi bilan Dumani tuzish, shuningdek, saylovlar to'g'risida qonun tayyorlash maqsadida yig'ilish chaqirildi. Imperator Rossiya xalqlari va o'lkalaridan vakillikni joriy etish istagini bildiradi<sup>40</sup>.

Turkiston ma'muriyatiga ko'ra, o'lka saylovchilari uchun mulkiy egalik darajasi, hatto Toshkent uchun ham juda yuqori bo'lgan, manbalarda ko'rsatilishicha Toshkentda bo'lib o'tadigan saylovlarda bevosita ishtirok etish huquqini beruvchi atigi 2152 kishi talab etilgan ko'chmas mulk miqdoriga ega edilar. 40880 kishi esa ovoz berish huquqini bermaydigan mulkka egalik qilishar edi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, general-gubernator ko'chmas mulkning miqdoridan qat'i nazar, barcha mulk egalari ovoz berish huquqini berishni taklif qiladi<sup>41</sup>.

1905-yil 6-avgustda Davlat Dumasini tashkil etish to'g'risidagi Manifest, Dumaning huquqiy maqomini belgilovchi normativ hujjat va Dumaga saylovlar to'g'risida Nizom e'lon qilinadi. Ushbu Manifestda Rossiyada saylov asosida qonun chiqaruvchi organ tashkil etildi, biroq Duma mamlakatda o'sib borayotgan inqilobiy vaziyat tufayli biror marotaba chaqirilmadi. 1905-yil 17-oktabrda esa, uzoq va og'riqli ikkilanishdan so'ng Nikolay II "Davlat tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi manifestni imzolaydi<sup>42</sup>. Biroq yangi tashkil etilgan qonun chiqaruvchi organlarda Turkiston vakilligi masalasi ochiq qolishda davom etadi.

Rossiyaning Yevropa qismida birinchi Davlat Dumasiga saylovlar 1906-yilning 20-martida bo'lib o'tadi. Polsha, Sibir, Kavkaz va Turkiston gubernatorliklari, shuningdek, imperiyaning ko'chmanchi xalqlaridan saylovlar har bir o'lka uchun

<sup>37</sup> Худди шундай ҳуқуқларга Верний (ҳозирги Олма-Ота) ҳам эга эди.

<sup>38</sup> Ўз МА. И-1 жамғарма, 16-рўйхат. 1650-иш, 5-варақ; Н.А. Абдурахимова ва Ф.Р. Эргашевларнинг "Туркистонда чор мустамлака тизими" асарида эса маҳаллий аҳолидан 21 нафар номзод бўлганлиги кўрсатилган.

<sup>39</sup> Шушкова М.Е. Организация управления Туркестаном в начале XX века: дисс... канд. исторических наук. Российский государственный гуманитарный университет. – М., 2016. – С. 121.

<sup>40</sup> Циунчук Р.А. Думская модель парламентаризма в Российской империи: этноконфессиональное и региональное измерения. – Казань, 2004. – С. 79.

<sup>41</sup> ЎзМА, И-1-жамғарма, 17-рўйхат, 529-йиғма жилд, 126-варақ.

<sup>42</sup> Среднеазиатская жизнь. 1905 г. 12 ноября.

alohida ishlab chiqilgan maxsus qoidalarga muvofiq o'tkazilishi belgilanadi. Bunga ko'ra, Dumaga saylovlar 11-dekabr kuni o'tkazilishi kerak edi<sup>43</sup>.

Senator graf D.M. Solskiy boshchiligidagi maxsus yig'ilishda Yettisuv, Kaspiyorti, Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida davlat Dumasiga saylov to'g'risidagi Nizom hamda ularga qo'shimcha ko'rsatmalarni tayyorlash bo'yicha ishlar boshlanadi<sup>44</sup>.

Dastlab qoidalarni muhokama qilish chog'ida Turkistonning tub aholisini ovoz berish huquqi va harbiy xizmatdan ozod qilish zarurligi haqida fikr bildiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad davlat xarajatlarini tejash va bu xalqning qonunchilik ishlariga tayyor emasligi sabab sifatida ko'rsatiladi<sup>45</sup>. O'z navbatida, Turkiston ma'muriyatining ba'zi vakillari ham xuddi shu pozitsiyalarda turishgan edi.

1906-yil 4-yanvarda Konstitusiyaviy demokratik partiyaning namoyishda Toshkent shahar rahbari N.G. Malliskiy mahalliy aholi saylanadigan vakillik tizimiga hali "tayyor emas" degan fikrni bildiradi. Shuningdek, u birinchilardan bo'lib mahalliy aholini vakillikdan mahrum qilish to'g'ri bo'lishini aytib o'tgan edi, chunki "ko'pchilik uchun bu deyarli hech qanday foyda keltirmaydi" – degan fikrda edi u<sup>46</sup>.

Ichki ishlar vazirining o'rinbosari S.E. Krijanovskiy 1905-yil oktabr oyida "Davlat kengashini o'zgartirish to'g'risida"gi murojatnomasida eng muhim davlat masalalaridan, bu "davlat hokimiyatining kuchi va Rossiya suveren taxtining asosi bo'lgan rus xalqining ovozi, albatta, qonun chiqaruvchi idoralarda hukmron bo'lishini talab qilinishini kerakligini, aks holda, Dumada, ayniqsa, "begona masalalar"ni hal qilishda hukumat uchun kuchli va noqulay ko'pchilik shakllanishi mumkinli haqida ham ta'kidlagan o'tgan edi<sup>47</sup>.

Holatga aniqlik kiritish uchun quyidagi ma'lumotlarni keltirish joiz. Masalan, 1906-yilgi Tevyashov hisobotida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Turkistonda 5690100 nafar aholi yashagan, shulardan 266 ming ruslar bo'lgan. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda biz mahalliy aholi soni ushbu davrda 5424100 kishini tashkil qilganligini aniqlashimiz mumkin (ushbu raqamlar V.A. Pyaskovskiydagi tub aholi (5378 ming kishi) va ruslar (322 ming kishi) sonidan farq qiladi – dissertant)<sup>48</sup>.

Agar Rossiyaning Yevropa qismi me'yorlari bo'yicha hisoblanadigan bo'linsa (250 ming aholiga 1 nafar deputat), Turkistonning tub aholisi Dumadagi 21 (22) o'ringa ega bo'lishi mumkin edi. Lekin ko'rsatilgan talabning yarmiga (500 ming aholiga 1 nafar deputat) ruxsat berilgan holda ham, Turkiston 8 kishi emas, 10 (11) vakilga ega bo'lar edi. N.O. Tevyashov 16 ta deputatlik mandatini "mahalliy"larga ajratishni taklif qiladi. Loyiha 1905-yil iyul oyida "Buligin Dumasi" loyihasini

<sup>43</sup> Патрикеева О.А. Выборы в I государственную Думу Российской империи: столицы и провинция. / Центр и регионы России. 2010. – С. 371-372 (356-379): <https://cyberleninka.ru/article/n/vybory-v-i-gosudarstvennuyu-dumu-rossiyskoy-imperii-stolitsy-i-provintsiya>

<sup>44</sup> Избирательный закон и особенности его применения в Туркестане // Клио. – 2006. – №2. – С. 77–80.

<sup>45</sup> Среднеазиатская жизнь. 1906 г. 31 января.

<sup>46</sup> Костецкий В.А. Россияне в Узбекистане. – Ташкент: Нихол, 2008. – С. 119 (336 с.)

<sup>47</sup> Соколов А.С. С.Е. Крыжановский и правая печать в Российской империи начала XX века.// Политическая история. – С. 391. (390-394); Он же: С.Е. Крыжановский – государственный деятель Российской империи начала XX века: Дис. ... канд. ист. наук: Калининград, 2006. – С. 109-110. (203 с.)

<sup>48</sup> Пясковский А.В. Революция 1905–1907 годов в Туркестане. – М., 1958. – С. 526.

tayyorlash paytida taqdim etilgan edi. N.N. Tevyashovning vorisi D.I. Subotich 1906-yil yanvarda ushbu loyihani tasdiqladi, ammo ba'zi qo'shimchalar bilan. Keyinchalik ular D.M. Solskiy komissiyasiga yuborildi<sup>49</sup>.

Turkiston o'lkasida Markaziy viloyatlardan farqli o'laroq, ishchi kengash tashkil etilmagan edi. Nomzodlar saylovlarda ishtirok etishlari uchun faqatgina uy-joy mulkdorlari yoki xonadon solig'ini to'laydigan shaxslar sifatida qatnashishlari mumkin edi. Rus aholisi uchun ikki bosqichli saylovlar bo'lib o'tar edi. Saylovchilar okrug s'yezdlarida yig'ilar, u yerda viloyat saylov jarayonlari uchun odamlar tanlanar edi. Viloyat yig'inlarida saylovchilar deputatlarni to'g'ridan-to'g'ri Dumaga saylar edi<sup>50</sup>.

Mahalliy aholi uchun esa saylovlar to'rt bosqichli edi. Dastlab, viloyatlarda ellikboshilar (har 50 ta hovlidan bitta saylovchi) saylanar edi, ular volost kengashlarida maxsus vakillarni tanlar edilar. Vakillar esa okrug s'yezdlarida saylovchilarni, viloyat yig'inlarida esa Davlat Dumasiga deputatlarini saylar edilar.

Toshkent shahrida ikki bosqichli saylov tizimi o'rnatiladi. Saylovchilar sonidan qat'i nazar, har bir jamoa (mahalliy aholi va yangi kelganlar)dan 40 nafar saylovchi saylangan. Aynan ushbu saylovchilar alohida-alohida Davlat Dumasiga 2 nafar deputatni saylashlari kerak edi<sup>51</sup>.

Saylovchilar ro'yxatlari okrug boshliqlari tomonidan tuzilgan va saqlangan. Qonun bo'yicha saylovda qatnashish huquqini olgan fuqarolar ikki toifaga bo'lingan hamda saylov ro'yxatlariga hech qanday maxsus bayonotlarsiz kiritilgan va o'z qarorlarini mahalliy gazetalarda qoidalar e'lon qilingan kundan boshlab olti haftadan kechiktirmay e'lon qilishlari kerak edi<sup>52</sup>.

Birinchi toifaga 1905-yil avgustdagi Nizom va 1905-yil 11-dekabrdagi qonun asosida saylovlarda qatnashgan hamda shahar, zemstvo kengashlari va davlat palatalarida davlat soliqlari, ko'chmas mulkdan zemstvo hamda shahar yig'imlarini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslar, shuningdek, davlat, shahar yoki shahar uchun nafaqa yoki pensiya olgan shaxslar kirar edi. Ikkinchi toifaga esa mulkiy talabga javob bera olgan shaxslar kiradi<sup>53</sup>.

Dissertatsiyaning **“Davlat Dumasi va Turkiston o'lkasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi asosan Dumaga saylov jarayonlari, ularning o'lka hayotiga ta'siri hamda mahalliy aholining unda ishtiroki masalalariga bag'ishlangan.

Masalan, Namangan shahrida bo'lib o'tgan saylovlarda shaharning rus millatiga mansub aholi yashaydigan yangi qismidan hammasi bo'lib 7 kishi, mahalliy aholisi yashaydigan eski qismidan 53 kishi, jami 60 kishi Namangan shahar Dumasi vakillari etib saylanadi<sup>54</sup>.

1905–1907-yillardagi inqilob va I davlat Dumasiga saylovlar siyosiy partiyalar faoliyatini jonlantiradi. Jamiyatning siyosiy uyg'onish jarayoni, asosan, 1905–1907-yillarda amalga oshiriladi va ular quyidagilardan iborat edi: qisman

<sup>49</sup> Формирование парламентской системы Российской империи и Туркестан. [https://vuzlit.com/840416/formirovanie\\_parlamentskoy\\_sistemy\\_rossiyskoy\\_imperii\\_turkestan](https://vuzlit.com/840416/formirovanie_parlamentskoy_sistemy_rossiyskoy_imperii_turkestan)

<sup>50</sup> Сайлов тарихига бир назар. 21.10.2021 <https://namanganimbugun.uz/?p=191>

<sup>51</sup> Избирательный закон и особенности его применения в Туркестане // Клио. – 2006. – №2. – С. 77–80.

<sup>52</sup> Среднеазиатская жизнь. 1906 г. 6 мая.

<sup>53</sup> ЎзМА. И-1-жамгарма, 17-рўйхат, 616-йиғма жилд, 11–34 варақлар.

<sup>54</sup> Мансуров У. 1917–1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. авторефер. – Тошкент, 2018. – Б. 12.

soʻz erkinligiga erishiladi, yuzlab yangi davriy nashrlarning vujudga kelishiga asos yaratiladi, ommaviy mitinglar, turli xil siyosiy klublar va madaniy-maʼrifiy jamiyatlar kabi oʻzgarishlar sodir boʻladi<sup>55</sup>.

Baʼzi tadqiqotchilarning fikriga koʻra, Rossiya musulmonlariga berilgan imtiyoz siyosiy harakatlarni boshlashga imkon bergan edi. 1905-yildan boshlab esa turkiy tillarda davriy matbuot nashrlari va kitoblar chop etish jadal rivojlana boshladi. Oʻlka musulmon matbuotida madaniy va siyosiy masalalar muhokama qilina boshlandi. Shu bilan birga, moʻtadil islohot jarayonlari ustunlik qiladi.

Turkistonda butun imperiyada boʻlgani singari partiya, kasaba uyushmalari va ijtimoiy-siyosiy birlashmalar vujudga kela boshladi<sup>56</sup>, buni oʻsha davrga oid arxiv hujjatlari ham tasdiqlaydi. Masalan, 1905-yilgacha oʻlkada “Ittifoq guruhi” – sotsial-demokratlar va sotsialistik-inqilobchilarning tarqoq guruhlari birlashmasi mavjud edi. 1906-yilda oʻlkada “Butunrossiya muhandis va texniklar ittifoqi”, “Quruvchilar uyushmasi” negizida kadetlar partiyasi tuziladi, keyinchalik “17-oktabr Ittifoqi” kabi tashkilotlar ish yuritadi<sup>57</sup>.

Shuningdek, “Russkiy narodniy soyuz”<sup>58</sup>, “Huquqiy tartib partiyasi”, “Xalq progressiv partiyasi”, Samarqandda esa oʻng tomonda turgan “Rossiya konstitutsiyaviy partiyasi” roʻyxatdan oʻtib uning bosma nashrlari ham chop etila boshladi<sup>59</sup>. 1906-yil may oyida “Mehnat guruhi” oʻz orasidan alohida byuroni ajratadi, uning raisi Toshkent kadetlar partiyasi rahbari N.I. Zakamenniy edi. Tuzilishiga koʻra, bu partiya saylov guruhi emas, balki mustaqil tashkilot edi.

Shuningdek, Toshkentdagi I Davlat Dumasidagi saylov jarayonida mahalliy “Xalq progressiv partiyasi” hisoblangan moʻtadillar guruhi ham ishtirok etadi. Samarqandda ushbu siyosiy kuch koʻproq oʻng qanot “Rossiya konstitutsiyaviy partiyasi”, mahalliy maʼmuriyat va politsiya boʻlimlari tomonidan qoʻllab-quvvatlanib, ular ham saylovoldi tashviqotini olib borar edi<sup>60</sup>.

1906-yil 25-mayda Toshkentda boʻlib oʻtgan yahudiylar jamiyatining saylovoldi namoyishida kadetlar va sotsial-demokratlar oʻrtasida jiddiy munozara boʻlib oʻtadi, chunki 1890-yillardan boshlab yahudiylarning Turkiston hududida huquqlari cheklana boshlaydi<sup>61</sup>.

Jadidlar metropoliyadagi siyosiy jarayonlarni kuzatib borib, Rossiya siyosiy partiyalarining dasturlarini diqqat bilan oʻrganadi. Dumaning faoliyatini kuzatib borgan jadidlar parlament kurashi usullaridan foydalangan holda koʻp narsalarga erishish mumkinligiga ishonadilar<sup>62</sup>.

<sup>55</sup> Каранг: Назаров А.Н. Революция 1905-1907 гг. в контексте изучения массового сознания людей. // Вестник СПбУ. 2/2007. – С. 92-97.

<sup>56</sup> Вахабов М. Туркестан в период трех революций. – Ташкент, 1957; Пясковский А.В. Революция 1905–1907 годов в Туркестане. – М., 1958; Иофе В.Г. Партия левых эсеров в Туркестане / В.Г. Иофе, Д.У. Мадрахимова // Человек и демократия. – 1993. – №5.

<sup>57</sup> Зябликов А.В. «Союз 17 октября» и «Новое время» // Интеллигенция и мир. 2009. – № 2. – С. 61-75; [http://www.hrono.ru/organ/ukaz\\_s/soyuz17okt.php](http://www.hrono.ru/organ/ukaz_s/soyuz17okt.php)

<sup>58</sup> [https://old.bigenc.ru/domestic\\_history/text/3521522](https://old.bigenc.ru/domestic_history/text/3521522)

<sup>59</sup> Туркестанские ведомости. 1906 г. 4 мая.

<sup>60</sup> Русский Туркестан. 1906 г. 20 мая.

<sup>61</sup> Тўраева О. XIX аср ўргалари – XX аср бошларида Бухоро яхудиylарининг тадбиркорлик фаолияти./ Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари: асосий йўналишлари ва ёндашувлар. – Тошкент, 2009. – Б. 349 (346-351)

<sup>62</sup> Ирзаев Б., Орпиков У. Жадид матбуоти саҳифаларида Туркистондаги сиёсий жараёнлар./ Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Тошкент ислом университети. – Тошкент, 2016. – Б. 10-101 (97-113).

Ma'lumki, o'sha davrda Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Duma va Turkiston" maqolasida: "Bizning rus fuqarolarimizning diniy va boshqa tartibidagi barcha masalalari Dumaning ixtiyoriga berilgan. U yerda nafaqat uchrashuvlar, balki butun axloqiy janglar ham bo'lib o'tadi. Har bir millatning taqdiri va manfaatlari Duma bilan bog'liq" deb yozgan edi<sup>63</sup>.

Saylovchilar ro'yxatini tuzish ushbu ishning boshida turgan boshlang'ich nuqta edi. Ushbu ro'yxatlarning ba'zilari bizgacha arxiv manbalari orqali yetib keldi. Ularda qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular ko'plab cheklovchi senzura talablariga javob beradigan saylovchilarning milliy va ijtimoiy tarkibini baholashga imkon beradi<sup>64</sup>.

Saylov komissiyalaridan "harbiy unvonga ega bo'lgan, ammo fuqarolik muassasalarida lavozimlarni egallagan shaxslarning saylovda ishtirok etish huquqi to'g'risida"gi masalani tushuntirishni so'rash; "rus-tuzem maktab o'quvchilari, maxsus xonalarda, saylov kartalarini yozish"ga ruxsat berish kabi masalalar bo'yicha so'rovlar ko'p kelar edi<sup>65</sup>.

Turkistondagi saylov kompaniyasining asosiy muammolaridan biri rus tilini mahalliy aholi tarafidan bilmaslik bilan bog'liq edi. Keyingi o'rinda saylovchilar ro'yxatidan tushirib qolinishi, vafot etganlarning saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi, ro'yxatlarga bir kishini bir necha marotaba yoki turli raqamlar ostida qayd etilishi yoki umuman saylovchilar ro'yxatiga kiritilmaganlik holatlari, saylov kuni ro'yxatlarining tayyor emasligi<sup>66</sup>, saylovchilarning yashash joyi bilan chalkashlik yoki ismi va otasining nomini noto'g'ri yozish kabilar turar edi<sup>67</sup>.

Yoki misol uchun o'lka shaharlarida mahalliy idoralarga bo'lib o'tgan saylovlarda kutilmagan natijalar kuzatiladi. Toshkent shahar Dumasiga saylangan 112 kishidan 76 tasi mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'ladi. Andijon shahar Dumasiga bo'lgan saylovda esa "Sho'roi Islomiya"dan mahalliy aholi vakillaridan – 77 ta, "Hurriyat" va "Ma'rifat" jamiyatlaridan – 3 tadan, "Ittifoq"dan – 1 ta, bolsheviklardan – 11 ta, yahudiylardan – 2 ta o'ringa ega bo'ladi<sup>68</sup>.

Komissiyalar duch kelgan eng qiyin muammo – bu o'lkaning etnik va diniy turfa xilligi edi. Hukumatning rus tilini joriy etish borasidagi sa'y-harakatlariga qaramay, u hali aholining katta qismi orasida keng tarqalmagan va saylovlarning borishi hamda o'tkazilishi to'g'risida mahalliy tillarda tushuntirish nashrlari juda kam edi, saylov davomida saylov byulletenlarini to'ldirishgacha bo'lgan barcha ishlar rus tilida olib borilgan. Bularning natijasida, mahalliy saylovchilarning aksariyati ovoz berishda ishtirok eta olmagan.

Ko'chmanchi aholi o'rtasida saylovlarni tayyorlash tartibi murakkab edi. Chunki ular muntazam turg'un yashamas, yozgi yoki qishki saylovlarga ko'chib o'tar edi. Shuning uchun ro'yxatlarni tuzish va aholini ovoz berish vaqti to'g'risida xabardor qilish juda ham mushkul ish edi, saylovni noyabr oyining oxiri yoki dekabrning boshlariga belgilashni iltimos qilgan edi<sup>69</sup>.

<sup>63</sup> Тужжор. 1907 г. 9 октябрь.

<sup>64</sup> ЎзМА. И-1-жамғарма, 17-рўйхат, 651-йиғма жилд, 2-варақ.

<sup>65</sup> ЎзМА. И-1-жамғарма, 17-рўйхат, 616-йиғма жилд, 2, 13–14- варақлар.

<sup>66</sup> ЎзМА. И-274-жамғарма, 1-рўйхат, 14-йиғма жилд, 9-варақ.

<sup>67</sup> ЎзМА. И-274-жамғарма, 1-рўйхат, 3-йиғма жилд, 32-варақ.

<sup>68</sup> Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 100.

<sup>69</sup> ЎзМА. И-274-жамғарма, 1-рўйхат, 11-йиғма жилд, 8-варақ.

Saylov binolari umuman yaroqsiz bo‘lib va bu uyezd hamda viloyat komissiyalarining takroriy so‘rovlariga qaramay umuman o‘zgarish yuz bermagan. Masalan, Verniy (hozirgi Olma-Ota)da guvohlarning so‘zlariga ko‘ra, “ko‘p odamlar bor edi, lekin yozish uchun joy yo‘q edi”. Shuning uchun tez orada turli joylarda vaqtinchalik daftar stollari paydo bo‘ldi. Ular o‘rindiqlik, panjara yoki oddiygina qog‘shning orqasiga qog‘ozni suyab yozar edi<sup>70</sup>.

Savodsiz saylovchilar muhitida turli xil hiyla-nayranglar uchun katta imkoniyatlar yaratilgan edi. Odamlar ko‘pincha mansabdor shaxslar yoki kotiblardan byulletenlarini to‘ldirishni so‘rar edi. Mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda u yerda faqat hukumatga sodiq nomzodlarning ismlari yozilgan, deb taxmin qilish mumkin. Ko‘pincha mahalliy ma‘muriyat aholiga chaqiruv qog‘ozlarini tarqatishni kechiktirar edi. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismi saylovchilariga 20 mingga yaqin chaqiruv qog‘ozini o‘z vaqtida yetkazilmagan<sup>71</sup>. Shunga qaramay, Turkistondagi saylovlarda saylovchilarning ishtiroki quyidagicha bo‘ldi: Toshkentda – 47 foiz, Qo‘qonda – 26, Verniy (hozirgi Olma-Ota)da – 45 va Ashxobodda esa 52,2 foizni tashkil etgan<sup>72</sup>.

Qonunchilikka ko‘ra, qirg‘izlar, dunganlar va boshqa millatlar saylovlarda ruslar bilan birgalikda qatnashishga yo‘l qo‘yilmadi. Mahalliy aholi shahar saylovchilarining anjumanlarida qatnasha olmadi<sup>73</sup>.

Toshkent shahridan II Davlat Dumasiga saylovlar Yevropa va mahalliy aholi uchun alohida-alohida bo‘lib o‘tishi belgilangan edi. Mahalliy bo‘lmagan aholidan 40 saylovchini saylash uchun shahar yig‘ilishi 1907-yil 20-yanvar, mahalliy aholi uchun esa 27-yanvarda bo‘lib o‘tadi. Shaharning Yangi qismida ikkita, Eski shaharda esa to‘rtta saylov uchastkasi ochilgan edi. Senat Toshkent shahri o‘zining an‘anaviy bo‘linishiga ko‘ra, to‘rtta, ya‘ni Shayxontohur, Sebzor, Beshyog‘och va Ko‘kcha saylov uchastkalariga ajratgan edi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘lkani saylov huquqidan mahrum qilinishi va Dumada ko‘rilgan masalalar**” deb nomlangan bo‘lib, unda Turkistonga nisbatan Rossiya hukumati tomonidan chin mustamlaka sifatida qaralishi va Davlat Dumasiga saylash va saylanish huquqidan mahrum bo‘lishi ochib berilgan.

Ma‘lumki, II Davlat Dumasining tarqatib yuborilishi natijasida mamlakatda siyosiy voqelikning o‘zgarishi saylov tizimini tuzatish masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Imperatorning 1907-yil 3-iyundagi farmonida Dumaning tarqatilishi bilan bir qatorda yangi saylov qonunini e‘lon qilish ham taklif qilindi. Xususan, unda: “Rossiya davlatini mustahkamlash uchun yaratilgan Duma ruhan rus bo‘lishi, davlat tarkibiga kiruvchi boshqa millatlar Davlat Dumasida o‘z vakillariga ega bo‘lishi kerak, ammo ular sof rus masalalarida hakam bo‘lish imkoniyatini beradiganlar qatoriga kirmasligi kerak va bo‘lmaydi ham. Aholisi yetarli darajada fuqarolikka erishmagan davlatning xuddi shu o‘lkasida Davlat Dumasiga saylovlar vaqtincha to‘xtatilishi kerakdir” deyilgan edi<sup>74</sup>.

<sup>70</sup> ЎзМА. И-274-жамғарма, 1-рўйхат, 11-йиғма жилд, 13-варақ.

<sup>71</sup> Котляр П., Вайс М. Как проходили выборы в Туркестане. – Ташкент, 1947. – С. 15.

<sup>72</sup> Пясковский А.В. Революция 1905–1907 годов в Туркестане. – М., 1958. – С. 531.

<sup>73</sup> Будянский Д.М. Из истории выборов в Государственную думу в дореволюционном Киргизстане // Известия АН Киргизской ССР. – Фрунзе, 1970. – №3. – С. 83.

<sup>74</sup> Калинычев Ф.И. Государственная дума в России (Сборник документов и материалов). – М., 1957. – С. 272.

Ushbu qoida milliy hududlarga nisbatan yangi davlat siyosatining asosini tashkil etdi. Hukumat O‘rta Osiyo xalqlarini “siyosiy jihatdan hali yetilmagan” deb e‘lon qilib, Turkiston o‘lkasi xalqlarini butunlay ushbu huquqdan mahrum qiladi. Buning oqibatida, III Duma (1907–1912)dagi milliy vakillik 100 ga yaqin, IV Duma (1912–1917)da esa 76 ta deputatlik o‘rniga qisqartiriladi<sup>75</sup>.

Turkistonning tub aholisining reaksiyasi o‘zini uzoq kuttirmadi. “... yagona yo‘l, – deb yozadi “Tujjor” gazetasi, – bir joyga yirik shaharlardan, imkoni bo‘lsa, Turkistonning besh viloyati barcha shaharlaridan bir deputatdan yig‘ib, ularni... iltimosnoma bilan III Davlat Dumasida deputatlari tarkibiga kiritish iltimosi bilan Sankt-Peterburgga jo‘natishdir”<sup>76</sup>.

Keyinchalik Muvaqqat hukumat hokimiyat tepasiga kelishi bilan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonning o‘zida o‘lkaga mos qonun va farmonlar chiqarishi mumkin bo‘lgan ma‘lum bir Majlisni tashkil etishni taklif qiladi. Ushbu Majlis Rossiya hukumati bilan musulmonlar o‘rtasida vositachi bo‘lishi mumkin edi<sup>77</sup>.

Yangi qonunga nisbatan norozilik aholining barcha qatlamlari – milliy ziyolilar, savdo va sanoat doiralari, ishchilar tomonidan bildirilgan edi. Mahalliy matbuotda “Turkistonlik odamning ko‘chadagi turmush tarzi qonunchilik yo‘lida rivojlanishiga mo‘ljallanmagan” deb yozilgan edi<sup>78</sup>.

1907-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan o‘n yil davomida Turkiston uchun saylov huquqini tiklash masalasi ham Duma deputatlari, shuningdek, ilg‘or Turkiston jamoatchiligi tomonidan parallel ravishda muhokama qilib kelinadi.

Chunki davlat Dumasida partiya kuchlari nisbati o‘zgarishi xavfi mavjud edi<sup>79</sup>.

1913-yilning 27-fevralida IV chaqiriq Dumaning birinchi sessiyasida davlat Dumasining 32 a‘zosi nomidan “saylov to‘g‘risidagi nizomni o‘zgartirish to‘g‘risida” bayonot bilan kadetlar fraksiyasi rahbari P.N. Milyukov so‘zga chiqadi<sup>80</sup>.

1913-yil 13-martda bo‘lib o‘tgan yakuniy yig‘inda musulmonlar fraksiyasi o‘z pozitsiyasini bildiradi. Deputat K.B. Tevkelevning fikricha, Rossiya musulmonlari eng huquqsiz holatda edi. Deyarli 20 million kishidan iborat jamoa Dumada arziyas vakillikka ega edi. Shuni hisobga olib, fraksiya “Saylov to‘g‘risidagi nizomga qonunchilikka o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiqligi” uchun ovoz beradi<sup>81</sup>.

Ammo qonun loyihasining o‘zi ham, yangi qonunni ishlab chiqish uchun maxsus komissiya tuzish g‘oyasi ham kuchli qo‘llab-quvvatlanganiga qaramay, kadetlarning tashabbusi asosida ko‘pchilik ovoz bilan rad etiladi.

Turkistonning tub aholi vakillari Duma faoliyatidan tez-tez norozi bo‘lib turgan. Masalan, 1905–1906-yillarda “Eski” shaharliklarning daromadi “Yangi”

<sup>75</sup> Бурмистрова Т.Ю. Национальный вопрос в программах и тактике политических партий в России. – М., 1976. – С. 47.

<sup>76</sup> Агзамходжаев С. Туркестан Мухторияти. – Ташкент: Фан, 1996. – Б. 64–66.

<sup>77</sup> Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии: Пути обновления, реформы, борьба за независимость. – Ташкент: Ўзбекистон, 2000. – 23 с. – С. 18.

<sup>78</sup> Туркестанский курьер. 1908 г. 2 июня.

<sup>79</sup> Государственная дума. Стенографический отчет. Созыв третий. Сессия I. Часть III... – С. 3668–3670.

<sup>80</sup> Аян Аден. Туркестан и Дума II созыва. Часть 3.(дата обращения 03.05.2023). <https://e-history.kz/ru/news/show/339155>

<sup>81</sup> Усманова Д.М. Мусульманские депутаты в государственной Думе (1906–1917 гг.): новая политическая элита в российской империи? // Ученые записки Казанского университета. Том 155, кн. 3, ч. 1. 2013. – С. 118 (113-124)

shaharliklarnikidan ko‘pligi, bundan mahalliy aholi hech qanday foyda ko‘rmayotganligi, uni faqatgina “yangi” shahar obodonchiligi uchun sarf qilinayotganligini ta’kidlab, Duma tarkibiga mahalliy millat vakillari bilan “yangi” shahar vakillari a’zolarini teng miqdorda saylanishini talab qilganlar<sup>82</sup>.

Masalan, mahalliy aholining noroziliklari Toshkent shahar Dumasi majlislarida ham bo‘lib turar edi. Shahar hokimi N. Malliskiy o‘z hisobotida: “Men 10 yillik faoliyatim davomida milliy nizolarni keltirib chiqaruvchi holatlarni yuzaga keltirmaslikka harakat qildim. Ko‘pincha mahalliy aholi “biz baribir hech narsaga arzimaymiz, bizni Dumaga kelishimiz ham shart emas, baribir ruslar hamma masalani o‘z xohishlariga qarab hal qiladilar” degan gaplar bilan norozi bo‘lar edilar, deb yozgan edi<sup>83</sup>.

A.N. Kuropatkinning o‘lka general-gubernatori lavozimiga tayinlanganidan keyin vaziyat biroz barqarorlashadi. Shunga qaramay, Davlat Dumasi o‘z komissiyasini Davlat Dumasidagi musulmonlar fraksiyasi a’zosi Kutlug‘Muhammad Batirgireyevich Tevkelev, shuningdek, uzoq yillar Turkistonda yashab kelgan Trudovik fraksiyasi vakili Aleksandr Fedorovich Kerenskiydan iborat komissiya Turkistonga yuboriladi<sup>84</sup>. Dastlabki rejaga ko‘ra, deputatlar K.B. Tevkelev va M.Yu. Jafarovlar jo‘nab ketishi kerak edi, lekin farmon e‘lon qilinganidan so‘ng Kavkazda ham tartibsizliklar bo‘lganligi sababli, Djaffarov Duma tomonidan o‘z saylov okrugida sodir bo‘lgan voqealarga oydinlik kiritish uchun Kavkazga yuboriladi<sup>85</sup>.

Turkiston xalqi bilan uchrashuvlarda deputatlar o‘z bayonotlarini berib, yig‘ilganlardan “o‘lka va uning aholisi manfaatlari yo‘lida qo‘lidan kelganini qilishga bo‘lgan istaklariga” ishonishlarini so‘raydilar<sup>86</sup>.

Ammo bir yildan so‘ng 1917-yil avgust oyida muvaqqat hukumat rahbari sifatida A.F. Kerenskiy Turkiston delegatsiyasi bilan uchrashuvda o‘lka xalqlariga hech qanday separatizmga toqat qilmasligini va bunga qarshi eng og‘ir choralarni ko‘rishini aytadi<sup>87</sup>.

T. Kotyukovaning yozishi bo‘yicha: “vakolatidan mahrum bo‘lgan Turkiston IV Davlat Dumasining so‘nggi sessiyasida Dumada u uchun muhim bo‘lgan qonun loyihalari qanday hal qilinishini, uning iqtisodiyotini qanday o‘rnatishini jimgina kuzatib borar edi”<sup>88</sup>.

Davlat Dumasi deputatlari Turkistonda yarim oydan sal ko‘proq vaqt bo‘lib keladi, ya’ni 15-avgustdan 2-sentabrgacha. Ular Andijon, Jizzax, Samarqand,

<sup>82</sup> Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкент. Бошқарув тизими./ XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2004. <https://shosh.uz/hih-asrning-ikkinchi-yarmi-hh-asr-boshlarida-toshkent-boshqaruv-tizimi-2/>

<sup>83</sup> Исмоилова Ж.Х. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи //shosh.uz/hih-asrning-ikkinchi-yarmi-hh-asr-boshlarida-toshkent-boshqaruv-tizimi-2.

<sup>84</sup> ЎзМА. Р-1009-жамғарма, 1-рўйхат. 85-йиғма жилд,10-варақ; Данилов Е. Исчезнувшая семья. Керенские в Туркестане // Звезда Востока. – 1991. – №9. – С. 79–93.

<sup>85</sup> Котокова Т. Керенские в Туркестане: История жизни одной семьи.: [tps://www.fergananews.com/articles/7149](https://www.fergananews.com/articles/7149)

<sup>86</sup> Аян Аден. От переселенческой политики до Туркестанского восстания 1916 года. Часть 3. <https://e-history.kz/ru/news/show/339196>

<sup>87</sup> Абдуллаев Р. Из истории национальных политических идей // Человек и политика. – 1991. – №9. – С. 89.

<sup>88</sup> Котокова Т. Туркестанское направление Думской политики в Российской империи. По документам Центрального Государственного архива Республики Узбекистан. 1906-1917 гг. [osh.uz/turkestanskoe-napravlenie-dumskoy-politiki-v-rossiyskoy-imperii-po-dokumentam-sentralnogo-gosudarstvennogo-arhiva-respubliki-uzbekistan-1906-1917-gg/](http://osh.uz/turkestanskoe-napravlenie-dumskoy-politiki-v-rossiyskoy-imperii-po-dokumentam-sentralnogo-gosudarstvennogo-arhiva-respubliki-uzbekistan-1906-1917-gg/)

Toshkent, Qo‘qon tashrif buyuradi<sup>89</sup>. Toshkentda Ubaydulla Xo‘jayev bilan uchrashuvda umumiy holat, xususan, deputatlik so‘rovlari muhokama qilinadi<sup>90</sup>.

Biroq u hukumat – “inorodes”larni harbiy xizmatga emas, balki faqat davlat mudofaasi bo‘yicha ishlashga jalb qilgan, bunda ular frontga qurol ostida chaqirilganlarga nisbatan xavfsiz holatga joylashtirilgan. Hukumat qonun chiqaruvchi institutlar ishtirokisiz ushbu chorani amalga oshirish uchun mas‘uliyatni dadil va o‘ziga ishongan holda o‘z zimmasiga oldi<sup>91</sup>.

Shunday qilib, aslida Davlat Dumasi komissiyasining Turkistonga tashrifi keng jamoatchilik va siyosiy rezonansga ega bo‘lsa-da, amalda hech qanday natija bermadi. Mahalliy siyosiy, tijorat va ishbilarmonlik elitasi yangi kelganlardan qat’iy harakat kutgan edi. “Biz senga tayanamiz”, deb xitob qilardi. Biroq komissiya va’dalarni qoldirib, vaziyatda keyingi safarbarlik xavfi to‘g‘risidagi xulosani o‘zlari bilan olib ketdi.

## XULOSA

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi saylovlar tarixini o‘rganish natijasida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Saylov tizimini Turkistonga joriy etilishi o‘lka xalqlari orasida keskin ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, diniy va etnik masalalar bilan bog‘liq muammolarni yuzaga chiqardi.

2. Boshqaruv tizimining mustamlakachilik ko‘rinishi saylov qonunchiligi va uning Turkistonda qo‘llanilishi ham o‘z aksini topganligi ma’lum bo‘ldi.

3. Turkistonda saylovlarni o‘tkazilishi o‘lkaning siyosiy uyg‘onishida muhim ahamiyat kasb etganligi va saylovlar o‘lkaning ko‘p millatli aholisi hamda milliy jamiyatlari uchun ilk tajribaga aylandi.

4. 1905-yildan 1907-yilgacha Turkistonning Davlat Dumasidagi vakilligi bor-yo‘g‘i ikki yil bo‘lganligi aniqlandi. Shu bilan birga, Rossiyadagi ba’zi liberal-demokratik kuchlar, umumiy saylov huquqi to‘g‘risidagi qonunni joriy etishga yoki hech bo‘lmaganda ular bekor qilingan imperiya hududlarida, shu jumladan, Turkistonda ham bir xil miqdordagi saylov huquqlarini tiklashga intildilar. Afsuski, bu harakatlar ko‘pchilik deputatlar tomonidan qo‘llanmadi.

5. 1907-yildan boshlab siyosiy inqiroz hamda Turkiston xalqlarining fuqarolik huquqlarini qisqartirish natijasida, Turkiston aholisi parlament ishida bevosita ishtirok etishdan majburan mahrum bo‘ldi.

6. Turkiston aholisiga saylov huquqlarini qaytarishga urinishlar amalga oshirilganligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu urinishlar, asosan, davlat Dumasidagi musulmon fraksiyasi tomonidan amalga oshirib kelindi.

7. Turkistonning ovoz berish huquqidan mahrum etilishi munosabati bilan musulmon fraksiyasi deputatlari birinchi navbatda o‘lkaning tub aholisi bilan birdamlikni his qilib, Turkistonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy masalalarini muhokama qilishda faol ishtirok etdilar. Afsuski, musulmon fraksiyasi Rossiyaning

<sup>89</sup> Туркестанский голос. 1916 г. 27 ноября.

<sup>90</sup> ЎзМА. И-1-жамғарма. 1-рўйхат. 1919-йиғма жилд, 1–2-варақлар.

<sup>91</sup> ЎзМА. И-461-жамғарма. 1-рўйхат. 1158-йиғма жилд, 232-варақ.

barcha musulmonlari, xususan, Turkiston bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishga sezilarli ta’sir ko‘rsata olmadi. Bu, birinchidan, nisbatan past siyosiy bilim darajasi, ikkinchidan, parlament kurashining amaliy tajribasining yo‘qligi, uchinchidan, Davlat Dumasidagi imperiyaning rus bo‘lmagan, shu jumladan, musulmon xalqlarining nomutanosib vakiligi bilan bog‘liq edi.

8. Dumada deputatlar tomonidan Turkiston muammolarini ko‘rib chiqish uydirma bo‘lib, hech qanday tarzda o‘lka aholisining huquqlarini himoya qilish kabi maqsadlarini ko‘zlanmaganligi isbotlandi.

Tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha chiqarilgan xulosalar saylovlar va unga tegishli jarayonlar borasida quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ilgari surishga asos bo‘ldi:

1. O‘zbekistonda saylov tizimining nazariy va amaliy asoslarini, innovatsion o‘ziga xos texnologiyalarni joriy etishning optimal modellarini, shuningdek, saylov natijalarini kompleks baholash mezonlarini to‘la ishlab chiqilmaganligi bugungi kunga qadar shu sohada hal qilinmagan muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Ushbu muammoni hal etish uchun esa avvalgi yillardagi tajribalarni o‘rganish va milliy manfaatlarni hisobga olgan holda yetakchi xorijiy mamlakatlarning yutuqlarini joriy etish.

2. Tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalar, Markaziy saylov komissiyasi Nodavlat notijorat tashkilotlar bilan birgalikda saylov tizimini takomillashtirish yuzasidan turli anjuman, konferensiya va uchrashuvlar o‘tkazish, saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan grant loyihalarini joriy qilish.

3. Turkiston o‘lkaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida aks ettirilishiga bag‘ishlangan ekspozitsiyalarni tashkil etish, monografiya va o‘quv qo‘llanmalarini nashr etish, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi saylov tizimini aks ettiruvchi fotoalbomlarni yaratish, hujjatli va kinofilmlar yaratish hamda keng jamoatchilikka yetkazish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**БОЛТАБАЕВ БАХТИЁР САБИРЖОНОВИЧ**

**ИСТОРИЯ ВЫБОРОВ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ  
В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по  
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Республике Узбекистан за номером B2020.1.PhD/Tar603.

Диссертация выполнена в Наманганский государственном университет.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:

Расулов Бахтиёр Махмуджонович  
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Эргашева Юлдуз Алимовна  
доктор исторических наук

Хошимов Соибжон Абдураззакович  
доктор исторических наук

Ведущая организация:

Ферганский Государственный университет

Защита диссертации состоится «29» 07 2024 года в 10:30 часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 по присуждению ученых степеней доктора философии (PhD) при Каршинском государственном университете (Адрес 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № 225). (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «11» 07 2024 года  
(реестр протокола рассылки № 2 от «11» 07 2024 года).



*[Signature]*  
Б. Эшов  
Председатель ученого совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.и.н., профессор

*[Signature]*  
Н.Н. Ражабова  
Ученый секретарь ученого совета  
по присуждению ученых степеней,  
к.и.н., доцент

*[Signature]*  
Ю.А. Эргашева  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.и.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В ведущих и развивающихся странах мира, формирующих основы своей государственности в соответствии с происходящими в мире социальными и политическими изменениями, роль выборов становится все более очевидной. Основным средством достижения демократии являются свободные и справедливые выборы, проводимые в определенный период. Говоря иными словами, обеспечивая избирательные права и свободы, организуя свободные демократические и справедливые выборы, каждый гражданин должен участвовать в управлении делами государства через свободно избранных представителей без дискриминации и ограничений. На основе всеобщего и равного избирательного права вопрос обеспечения свободы волеизъявления избирателей, голосования и быть избранным остается актуальным<sup>1</sup>.

Мировым научным сообществом проводятся научные исследования, направленные на разработку методологии, позволяющей превратить избирательные процессы в инструмент развития в соответствии с интересами народа, а не создавать новые проблемы для своего народа. Народное волеизъявление должно быть основой государственной власти, этот выбор не должен быть фальсифицирован, она должна проводить такие исследования, как совершенствование избирательного механизма, обеспечивающего свободу путём скрытого голосования всеобщего и равного избирательного права. В то же время существуют региональные и международные избирательные стандарты, которые совершенствуют законодательные вопросы, регулирующие выборы, а их обновление и доведение поэтапного режима работы до национального уровня считается актуальной проблемой мировой науки.

Среди них реформы избирательного процесса, реализуемые в нынешней Республике Узбекистан, находятся в центре внимания мирового сообщества и граждан страны. Известно, что выборы являются одним из главных требований для реализации демократических реформ. По этой причине стране, только что освободившейся от тоталитарной системы, было нелегко действовать в соответствии с демократическими принципами, поскольку этот процесс очень сложен и занимает длительное время для любого общества. Одной из важнейших характеристик выборов в нашей стране является открытость и прозрачность. Согласно ей, избирательные комиссии будут открыто и прозрачно информировать избирателей обо всей деятельности, связанной с подготовкой и проведением выборов. Представителям, избранным народом, поручено принятие решений по основным вопросам государственной и общественной жизни в соответствии с Конституцией. На выборах «партии должны через свои программы найти решения проблем, которые беспокоят их избирателей, расширяя тем самым ряды избирателей»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ахмадшоева М.А., Расулов Ш.Б. Сайлов қонунчилиги: 100 саволга 100 жавоб. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 4 б.

<sup>2</sup> Ш. Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга қўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 566 б.

В связи с этим становится объективной необходимостью научного исследования механизмов, методов и средств борьбы с любым фактором, негативно влияющим на эффективность избирательной системы.

Данная диссертация основана на Законе Республики Узбекистан от 27 сентября 2018 года «О выборах председателя (старейшин) Народного собрания», Указе Президента Республики Узбекистан № УП–4947 от 7 февраля, 2017 г. «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» и № ПП–5938 от 18 февраля 2020 г. «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также поднятию на новый уровень системы работы с семьями и женщинами» и ПП–4602 от 18 февраля 2020 года «Об организации деятельности министерства по поддержке махалли и семьи Республики Узбекистан», и, в определенной степени данное исследование служит решению задач, определенных в других нормативных правовых документах по данной теме.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан: I «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Литературу и источники, опубликованные по теме избирательной системы и системы управления в Туркестане в конце XIX – начале XX веков, можно разделить на следующие группы:

1. Научные исследования в период Российской империи и Советского Союза.
2. Научные работы, опубликованные в годы Независимости.
3. Исследования зарубежных ученых.

